

Tadqiq Va Ifoda. Sintaktik Mazmun

Jalolov Zafar¹

Annotatsiya: maqolada tadqiqot jarayonida ilgari sirayotgan nazariyani ifoda etish masalasi, shuningdek unda sintaktik mazmunining ahamiyati va xususiyatlari bayon etiladi.

Kalit soʻzlar: mazmun, til, kommunikatsiya, tafakkur, ifoda.

Maʼlumki, til bu kommunikatsiya vositasidir. U ehtiyoj oʻlaroq, ijtimoiy munosabat zarurati tufayli vujudga kelgan. Asrlar osha inson tafakkuri va hissiyoti, tuygʻulari shakllanib, murakkablashib borar ekan, uni tushuntiruvchi, izohlovchi vosita - tilning semantik va grammatik mohiyati ham murakkablashib ketgan. Ilm-fan, sanʼat, sanoat rivojlandi. Shuning uchun tilning vazifasi ham ortdi. U kundalik muomala-munosabat vositasigina boʻlib qolmadi, endilikda, u inson atalmish murakkab xilqatning kechinmalari va aql-u tafakkur tajribalarini ifoda etuvchi vositaga aylandi. Borliq-olamni idrok qilib, uni baholar ekan insonning fikrat maydoni kengayadi. Tafakkur va tasavvurning kengayishi bevosita va bilvosita sodir boʻladi. Bunda inson obyektiv olamni mustaqil ravishda analiz-sintez qiladi. Bilvosita oʻrganishda esa tayyor mavjud tajribalar asos boʻladi.

Bilvosita bilim olish jarayoni. Insonning diqqati bir vaqtning oʻzida turli obyektga qaratilmaydi. Shuningdek, turli xil vaqt oraligʻida kishining diqqat-eʼtibori turli nuqtalarga qaratilishi mumkin. Ammo tadqiqot jarayonida tadqiq obyekti yagona boʻlgan jarayonda bir shaxsning tadqiqot nazariyasi keyingi shaxsning tadqiqot nazariyasiga oʻxshamaydi. Ikki tadqiqotchining qarashlari baʼzi jihatlari bilan bir xulosani eʼtirof etsa, baʼzan ular tadqiq obyektining bir-biriga oʻxshamagan, lekin bir-birini toʻldiradigan qirralarini ochib beradi. Shuningdek, tadqiqotchilarning qarashlari bir-birini inkor etadigan holatlar koʻp uchraydi.

Muhimi shundaki, mavjud tadqiqot natijalarini oʻrganish orqali oʻquvchi bir vaqtning oʻzida birdan ortiq tadqiqotchilarning qarashlarini oʻrganib chiqish imkoniyatiga ega boʻladi. Aniqroq qilib aytganda, bir tadqiqot jarayoniga ketadigan vaqtda oʻndan ortiq qarashlarni oʻrganish imkoniyatiga ega boʻlishi mumkin. Bu vaqtni tejashda katta ahamiyatga ega. Chunki ilm-fan erishgan yutuqlarni toʻliq oʻrganib chiqishga umr yetmasligini hisobga olsak, vaqt katta ahamiyatga ega. Shuningdek, tadqiq natijasi boʻlmish mavjud qarashlarni oʻrganishdagi aktual xususiyatlaridan biri bu tadqiq obyektining har bir tadqiqotchi nigohida turli qirralarini namoyon etishi. Shu jihatdan ilm-fan oʻzaro tajriba almashish, taʼsirlanish va bir-birini toʻldirish asnosi rivojlanadi.

Tadqiqotda ifoda masalasi. Sintaktik sathda mazmun ifodasi.

Har qanday fikrni ifodalashda soʻzning ishlatilishi va gap qurilishi muhim ahamiyatga ega. Gap qurilishida semantik mazmun sintaktik mazmun maydonida ifodalanadi. Bunda anglatish va anglash oʻrtasidagi jarayon va uni taʼminlovchi vositalarni izohlash maqsadga muvofiqdir. Bunda modallik aspekti muhim ahamiyatga egadir. Modallikka ilmiy adabiyotlarda shunday taʼrif beriladi: "Tilshunoslikda modallik deganda, odatda, gap mazmuning obyektiv borliqqa munosabati va soʻzlovchining gap mazmuniga boʻlgan munosabati tushuniladi" ("Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi" A. Nurmonov. Toshkent 1992)

Umuman olganda, har qanday ifoda baho munosabatidir. Chunki "baho soʻzlovchi(subyekt)ning bayon qilayotgan obyektga munosabati bildiruvchi vosita boʻlib, u (fonetik sathdan tashqari) barcha sathda uchraydi." ("Uslubshunoslik asoslari" H. Dusmatov. Fargʻona. 2022)

Baho munosabati modal aspektida, asosan soʻzlovchining gap mazmuniga munosabati oʻrganiladi. Ammo umumiy jihatdan gap mazmuning obyektga munosabati ham baho munosabatidan kelib

¹ FarDU 3-bosqich talabasi



chiqadi. Ana shu munosabatni nazariya o'laroq ifoda etish dolzarb masaladir. Chunonchi, muallif va o'quvchi o'rtasiga qo'yiladigan "ko'prik" mustahkamligi ko'p jihatlarga bog'liqdir. Bunda muallifdan nazariyani qay darajada sodda va ravon ifodalash zarurati talab etilsa, o'quvchidan anglatayotgan narsani anglash ko'nikmasi va tajribasi zarur bo'ladi. Muallif gapning sintaktik qurilishidagi semantik ifoda tovlanishlarini ilg'ay olishi va ilgari surayotgan nazariyasini bayon etishda o'zi olib borayotgan mazmun nuqtasiga yo'l ochish uchun tildagi sintaktik mazmun xususiyatlaridan xabardor bo'lishi lozim. Bu narsa muallifdan ham, o'quvchidan ham talab etiladi. Sintaktik mazmun xususiyatlarini o'rganish, tushunish va tushuntirish ko'nikmasi va salohiyatini shakllantiradi. So'zda tushuncha, gapda mazmun, matnda g'oya, nazariya ifodalanadi. "Har qanday jumla nutq birligi sifatida nutq(tekst) ichida kelib o'zidan oldingi va o'zidan keyingi jumlar bilan munosabatda bo'ladi. Bunday munosabat jumlaning sintaktik munosabati hisoblanadi. Mantiqiy izchillikka ega bo'lgan har qanday nutq(tekst) sintaktik munosabatlarning o'zaro zichligi va sintaktik tobelikning bir tomonlama oldingi jumladan keyingi jumlagi qarab yo'nalishi bilan xarakterlanadi. Bu shuni ko'rsatadiki, jumla shakli o'zidan oldingi jumlagi bog'liq bo'ladi"("O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi" A. Nurmonov. Toshkent 1992)

Ma'lum nazariyani ilgari surishda gapning aktual bo'linishi va jumlaning mantiqiy ketma-ketligi juda muhimdir. Gapning aktual bo'linishi yaxlit tekstda ifodalanmoqchi bo'lgan nazariyaning mazmun taqozosiga muvofiq amalga oshiriladi. Chunonchi, Karim maktabga ketdi jumlasini bilan maktabga ketadigan Karim gaplarida tema-rema nuqtayi nazaridan farq qiladi. Binobarin, jumalarning qanday tuzilishi ifodalanmoqchi bo'lgan tekstual mazmunning kayfiyatiga bog'liq. Bu jarayon aktuallashtirish deb ataladi. Aktuallashtirishda ifoda maqsadiga ko'ra gap tuzilishi shakllantiriladi. "Aktuallashtirish jumlagi vaziyat shart-sharoit talabi bilan shu jumla orqali ifodalanadigan mazmunning kommunikativ niyatiga muvofiq keladigan shakl beradi"("O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi" A. Nurmonov. Toshkent 1992)

Umuman olganda, har qanday nazariyani ilgari surganda ifoda planida sintaktik xususiyatlarni hisobga olish zarur bo'ladi. Binobarin, nafaqat tushuntirish, balki tushunishda ham sintaksema xarakteridan xabardor bo'lish ishning oson ko'chishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, ilmiy adabiyotning sodda va oson bo'lishi o'quvchining o'rganish protsessini faollashtirib, bilim va ko'nikmalari sifatini oshiradi.

